



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov *Salimov Oqil Umrzoqov*, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashevich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI	162
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	166
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
Umarova Malika Nematjanovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
Рахмонов Джамшид Одил угли	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
Абдусаламова Фароғат Сунатиллаевна	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
Avazbek Jo'rayev	



BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH

Avazbek Jo'rayev
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida bank aktivlari samaradorligini oshirish omillari, tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarish va joylashtirishning xalqaro tajribasi, bank aktivlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari hamda mavjud ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishda real va nominal foiz stavkalarining ta'siri, xorijiy banklar amaliyotida riskka tortilgan aktivlar ulushining ahamiyati va bankning mo'tadil kredit siyosatining xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda aholini kreditlashdagi o'rnini yoritilgan. Tadqiqot natijalari bank aktivlarini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bank aktivlari, tijorat banklari, aktivlar samaradorligi, kredit siyosati, real foiz stavkasi, nominal foiz stavkasi, riskka tortilgan aktivlar, bank boshqaruvi, moliyaviy barqarorlik, bank xizmatlari.

Abstract. This article examines and analyzes the factors influencing the efficiency of banking assets in a market economy, the international experience of effective management and allocation of commercial bank assets, as well as theoretical approaches to improving banking asset efficiency. The study also highlights the impact of real and nominal interest rates on the efficiency of commercial bank assets, the significance of risk-weighted assets in the balance sheet structure of foreign banks, and the role of a balanced credit policy in lending to business entities and the population. The research findings contribute to improving mechanisms for effective asset management and strengthening the financial stability of commercial banks.

Key words: banking assets, commercial banks, asset efficiency, credit policy, real interest rate, nominal interest rate, risk-weighted assets, banking management, financial stability, banking services.

Аннотация. В данной статье рассмотрены и проанализированы факторы повышения эффективности банковских активов в условиях рыночной экономики, мировой опыт эффективного управления и размещения активов коммерческих банков, а также теоретические подходы к повышению эффективности банковских активов. Освещены вопросы влияния реальной и номинальной процентной ставки на эффективность активов коммерческих банков, значение доли риск-взвешенных активов в структуре банковского баланса зарубежных банков, а также роль умеренной кредитной политики банка в сфере кредитования хозяйствующих субъектов и населения. Результаты исследования направлены на совершенствование механизмов эффективного управления банковскими активами и повышение финансовой устойчивости коммерческих банков.

Ключевые слова: банковские активы, коммерческие банки, эффективность активов, кредитная политика, реальная процентная ставка, номинальная процентная ставка, риск-взвешенные активы, банковское управление, финансовая устойчивость, банковские услуги.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank aktivlari samaradorligini oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash bilan birga, aktivlardan yuqori daromad olish, mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank faoliyatida risk omillarining mavjudligi aktivlar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ayrim holatlarda moliyaviy yo'qotishlar yoki majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq murakkabliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Xususan, keyingi yillarda jahon miqyosida kuzatilayotgan pandemiya, iqlim o'zgarishi hamda moliyaviy-iqtisodiy beqarorlik holatlari tijorat banklari aktivlari tarkibida muammoli kreditlar ulushining oshishiga va



aktivlardan samarali foydalanish imkoniyatlarining qisqarishiga ta'sir ko'rsatmoqda. 2020-yilda dunyoning qator mamlakatlarida ishlamaydigan kreditlar ulushi yuqori darajani tashkil etgan bo'lib, jumladan, San Marinoda 63,51 foiz, Ukrainada 41 foiz, Gretsiyada 26,98 foiz hamda Qirg'izistonda 10,09 foizni tashkil etgan¹.

Fikrimizcha, jahon amaliyotida tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarish va joylashtirish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish hamda ularning ijobiy jihatlarni O'zbekiston tijorat banklari faoliyatiga moslashtirib joriy etish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy nazariyaning yirik namoyandalaridan biri A. Smit bank aktivlari samaradorligini oshirish va moliya institutlari faoliyatini samarali tashkil etishda iqtisodiyotdagi mehnat taqsimoti muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "jamiyatdagi mehnat taqsimoti kishilarni o'zaro manfaatdorlik asosida bir-biri bilan bog'laydigan iqtisodiy mexanizm hisoblanadi va bu jarayon ular o'rtasida moliyaviy hamda moddiy resurslar almashinuviga imkon yaratadi. Ushbu mexanizmning asosini esa bozor munosabatlari tashkil etadi"². Mazkur yondashuv bank tizimida resurslarni samarali taqsimlash, aktivlarni oqilona boshqarish va moliyaviy vositachilik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

Bank aktivlari samaradorligini oshirishning nazariy masalalari bo'yicha ayrim iqtisodiy ta'limotlarda bir-biriga qarama-qarshi yondashuvlar ham mavjud. Jumladan, fransuz iqtisodchisi Pyer Jozef Prudon (1809–1865) banklar tomonidan foizsiz kreditlar berilishi zarurligi haqidagi g'oyani ilgari surgan³. Prudonning fikricha, bank krediti bo'yicha foiz mehnat bilan yaratilmaydigan daromad hisoblanadi va shu sababli foiz stavkalarini bekor qilish maqsadga muvofiqdir.

Uning qarashlariga ko'ra, ishlab chiqaruvchilar foizsiz kreditlardan foydalansa, ishlab chiqarish hajmi kengayadi hamda mahsulot narxlarining pasayishiga erishiladi. Prudon ushbu g'oyani amalga oshirish maqsadida ixtisoslashgan banklar tashkil etish va ular orqali o'z ta'sischilariga ta'minlanmagan to'lov vositalarini muomalaga chiqarish asosida foizsiz kreditlar ajratishni taklif etgan. Uning nazariyasiga ko'ra, bunday tizim jamiyatda har bir insonning o'ziga maqbul faoliyat bilan shug'ullanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga va iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirishga xizmat qilishi mumkin edi.


Shu tariqa, Prudon iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash haqidagi g'oyalarni pul muomalasi tizimiga ham tatbiq etishga harakat qilgan. U 1849-yilda ushbu nazariyani amaliyotga joriy etishga uringan bo'lsa-da, mazkur tashabbus kutilgan natijani bermagan.

Amerikalik iqtisodchi I. Fisher esa kredit foizi haqidagi iqtisodiy qarashlarni umumlashtirish asosida yangi ilmiy yondashuvni shakllantirgan. Uning ta'limotida pul kapitalining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xususiyatiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Shu sababli tadbirkorlar kapital resurslariga doimiy ehtiyoj sezadi va ushbu ehtiyojni moliya bozorlari orqali qondirishga intiladi.

I. Fisherning fikricha, kredit taklifining asosiy manbai uy xo'jaliklari va kompaniyalarning vaqtincha bo'sh pul mablag'lari hisoblanadi. Agar banklar tomonidan taklif etilayotgan foiz stavkalari uy xo'jaliklari va korxonalar manfaatlariga mos kelsa, ular o'z mablag'larini qo'shimcha daromad olish maqsadida moliya bozorlariga, xususan tijorat banklariga joylashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Natijada moliya bozorlarida talab va taklif o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik shakllanib, ushbu moliyaviy resursning bozor bahosi, ya'ni bank krediti foiz stavkasi vujudga keladi. Mazkur jarayon tijorat banklari faoliyatida moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, aktivlar daromadlilikini oshirish hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Jamg'arma va investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida foiz stavkasining shakllanishi⁴.

1 Non-performing loans as percent of all bank loans, 2020 - Country rankings. https://www.theglobaleconomy.com/rankings/nonperforming_loans/

2 Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. /Аналогия экономической классики. -Т. 2. -М.: 1993, -С. 34.

3 Юсупов Ю.Б. Становление и развитие экономической науки. -Т.: 1997, -С. 60.

4 Muallif ishlanmasi



1-rasmdan, ya'ni "Fisher samarasi" deb nom olgan chizmadan ko'rinib turibdiki, jamg'arma va investitsiyalar hajmidan kelib chiqqan holda foiz stavkasi "tabiiy" darajada tebranadi. Agar muomaladagi pul massasi ortsa, dastlab foiz stavkasi pasayadi, keyinchalik esa tovarlar bahosining oshishi natijasida foiz stavkasi yana ko'tariladi. Shuningdek, I. Fisher nominal va real foiz stavkalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda quyidagi tenglamadan foydalanish samarali ekanligini ta'kidlaydi:

$$NFS = RFS + ID$$

Bunda:

- NFS — nominal foiz stavkasi;
- RFS — real foiz stavkasi;
- ID — inflyatsiya darajasi.

I. Fisherning fikriga ko'ra, nominal va real foiz stavkalari o'rtasidagi muvozanat inflyatsiya darajasi orqali shakllanadi. Kredit beruvchi ham, kredit oluvchi ham kreditning real qiymatini saqlab qolishdan manfaatdor bo'ladi. Chunki iqtisodiyotda pul massasining ortishi mos ravishda baholar o'sishiga olib keladi, bu esa inflyatsiya darajasining oshishiga va natijada nominal foiz stavkasining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Shu bois uzoq muddatli davrda real foiz stavkasining o'zgarishi pul massasi va narxlar darajasining o'sishiga to'liq bog'liq bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, I. Fisherning bank aktivlari samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi foiz stavkalari haqidagi ta'limoti muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv iqtisodiyotda bozor mexanizmlari to'liq amal qiladigan sharoitda yanada samarali namoyon bo'ladi. Buning uchun iqtisodiyotda pul massasi va tovar massasi o'rtasidagi nisbat, ya'ni monetizatsiya koeffitsienti xalqaro ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan darajada bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda ushbu ko'rsatkichning YalMga nisbatan taxminan 60 foiz atrofida bo'lishi tavsiya etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishda real va nominal foiz stavkalari muhim iqtisodiy kategoriyalar hisoblanadi. Real foiz stavkasi aholi va bank mijozlarining investitsion faolligiga bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Klassik va neoklassik maktab vakillari — F. Kene, A. Smit, A. Marshall, J.S. Mill, J. Sey, L. Valras, V. Pareto va boshqa iqtisodchilar foiz stavkalari talab va taklif asosida bozor mexanizmlari orqali tartibga solinishi lozim degan g'oyani ilgari surganlar. Ular tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirishda markaziy bank aralashuvining cheklangan bo'lishi tarafdori bo'lganlar.

Iqtisodiy nazariyada tijorat banklari aktivlari samaradorligiga inflyatsiyaning ta'siri bo'yicha qator ilmiy yondashuvlar ilgari surilgan. Xususan, Birinchi jahon urushida ishtirok etgan mamlakatlarda katta miqdordagi ta'minlanmagan pullarning muomalaga chiqarilishi inflyatsiya darajasining keskin oshishiga olib kelgan.

Ingliz iqtisodiy nazariyachilari A. Pigu, J.X. Robertson va J.M. Keynes inflyatsiya sharoitida bank aktivlari samaradorligini oshirish maqsadida bir qator muhim omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Birinchidan, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi hamda majburiy zaxira me'yorlarini oshirish orqali muomaladagi pul massasini tartibga solishi lozim. Ikkinchidan, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish bo'yicha imtiyozli mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter esa bank kreditlarini iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida baholaydi. Uning ta'limotiga ko'ra, jamiyatdagi innovatsion va texnologik rivojlanishlarning asosida bank kreditlari yotadi. Y. Shumpeter banklarni nafaqat jamg'armalarni investitsiyalarga aylantiruvchi moliyaviy vositachi, balki iqtisodiy rivojlanishning faol yaratuvchilari sifatida talqin qiladi⁵.

Shuningdek, Y. Shumpeter o'z ilmiy qarashlarida banklarni iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantiruvchi muhim bo'g'in sifatida ko'radi. Uning fikricha, kredit emissiyasi, avvalo, iqtisodiy resurslarga bo'lgan talab va ularning bahosini oshiradi. Chunki tadbirkor bank kreditlari hisobidan qo'shimcha iqtisodiy resurslarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur jarayon bir tomondan samarasiz faoliyat yuritayotgan korxonalarining bozordan chiqib ketishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan innovatsion va zamonaviy yondashuvlarni joriy etayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jadallashadi.

Iqtisodiy nazariyachilar ta'limotiga ko'ra, har bir bank foyda olishga intiluvchi iqtisodiy subyekt hisoblanadi va moliya bozorida o'zining strategik manfaatlaridan kelib chiqib faoliyat yuritadi. Shu sababli banklar moliya bozorida turli strategiyalarni qo'llash orqali daromadlilikini oshirishga harakat qiladi. Biroq barcha banklar ham kutilgan iqtisodiy natijalarga erisha olmaydi. Bu esa bank aktivlarini joylashtirish va ularni samarali boshqarishga turli iqtisodiy, moliyaviy va institutsional omillarning ta'siri mavjudligi bilan izohlanadi.

5 Schumpeter J. History of Economic Analysis. New York. 1954, 256 p.




Mazkur ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tijorat banklari aktivlari sifatini oshirishga oid nazariy va amaliy manbalarni guruhlash, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, ekonometrik tahlil, sintez hamda koeffitsient usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar ilmiy asoslangan tavsiyalar va xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Xorijiy banklar amaliyotida aktivlar samaradorligini oshirishda asosiy e'tibor bank balansidagi riskka tortilgan aktivlar ulushini optimallashtirishga qaratiladi. Chunki riskka tortilgan aktivlar ma'lum darajadagi yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq bo'lsa-da, ular bankka yuqori daromad olish imkoniyatini yaratadi.

Bankning riskka tortilgan aktivlari tarkibiga qisqa va uzoq muddatli kreditlar, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar, shuningdek, faktoring, trast, forfeyting, lizing hamda kredit-ijara operatsiyalari kiradi.

Xorijiy bank amaliyotida ushbu aktivlar risk darajasiga qarab turli toifalarga ajratiladi. Ta'kidlash joizki, bank aktivlarining risk darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ular bo'yicha olinadigan daromad miqdori ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababli aktivlar samaradorligini baholashda turli iqtisodiy va moliyaviy mezonlardan foydalaniladi. Quyidagi rasmda xorijiy mamlakatlar banklarida aktivlar samaradorligini baholovchi asosiy mezonlar keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Xorijiy banklarda aktivlar samaradorligini belgilovchi mezonlar⁶

2-rasmda rivojlangan xorijiy banklarda aktivlar samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy mezonlar keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, bank aktivlari samaradorligini aniqlashda asosiy e'tibor aktivlardan foydalanish koeffitsientiga qaratilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Mazkur koeffitsient bank aktivlarining daromadlilik darajasini, ya'ni bank aktivlarining qanchalik qismi daromad keltirayotganini aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumki, tijorat banklari resurslari tarkibida jalb qilingan mablag'larning ulushi muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan jalb etilgan mablag'larning qanchalik qismi aktiv operatsiyalarga, yanada aniqroq aytganda, riskli aktivlarga joylashtirilganligi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan muddatli depozitlarning 75 foizdan ortiq qismi kreditlarga yo'naltirilgan bo'lsa, bu holat bank tomonidan agressiv kredit siyosati yuritilayotganidan dalolat beradi. Agar ushbu ko'rsatkich 65 foizdan past bo'lsa, bu bankning mo'tadil kredit siyosatini amalga oshirayotganini anglatadi.

Bankning riskli aktivlarini muddatlar bo'yicha joylashtirish ham aktivlar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli xorijiy banklar amaliyotida riskli aktivlarning qaysi qismi uzoq muddatli, qaysi qismi qisqa muddatli aktivlarga joylashtirilganiga alohida e'tibor qaratiladi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari faoliyatini baholashda standart reyting tizimi hisoblangan CAMEL tizimidan keng foydalaniladi. Ushbu tizim quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- C — Capital (kapital),
- A — Assets (aktivlar),

⁶ Uktamova N.N. The Problems of Increasing the Income and Quality of Assets of Commercial Banks //International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology Volume. 9: Issue. XII. December 2021 Issn: 2321-9653.



- M — Management (boshqaruv),
- E — Earnings (daromadlilik),
- L — Liquidity (likvidlilik).

Kapitalni baholashda, avvalo, rentabellik darajasiga e'tibor qaratiladi. Bunda foydaning bank o'z kapitalining o'rtacha qiymatiga nisbati hisoblab chiqiladi. AQSH banklari amaliyotida ushbu ko'rsatkichning 13–16 foiz oralig'ida bo'lishi mo'tadil daraja sifatida baholanadi.

CAMEL tizimidan foydalanilganda tijorat banklari faoliyati besh ballik tizim asosida baholanadi. Yuqori moliyaviy barqarorlikka ega banklarga 1 ball beriladi, moliyaviy jihatdan murakkab holatda bo'lgan banklarga esa 5 ball beriladi. Ushbu tizimda asosiy e'tibor bank kapitalining yetarliligi va bank aktivlari tarkibidagi riskli aktivlar ulushiga qaratiladi. Bank kapitalini baholash jarayonida riskli aktivlarning hajmi muhim omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

Tahlillar va o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy banklar amaliyotida bank aktivlari samaradorligini aniqlash mikro va makro darajada amalga oshiriladi. Bank aktivlari samaradorligini mikrodarajada baholash, asosan, bank aksiyadorlari, omonatchilar va investorlar manfaatlariga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda Xitoyning yirik tijorat banklaridan biri hisoblangan Sanoat-tijorat banki (Industrial and Commercial Bank of China) aktivlarining daromadlilik darajasi ko'rib chiqiladi (1-jadval).

1-jadval. Xitoyning Sanoat-tijorat banki (1-yanvar holatiga, foiz hisobidagi ulushi)⁷

Balans moddalari Kreditlar (4,45%)	2017 57,7	2018 58,7	2019 58,8	2020 56,7	2021 57,7
Investitsiyalar (3,6%)	21,9	22,0	22,7	20,0	21,9
Markaziy bankka talablar (1,55%)	13,4	12,7	11,0	13,4	13,4
Boshqa banklarga talablar (3,12%)	7,0	6,5	7,5	7,0	7,0
Daromadli aktivlar jami	94,1	93,2	92,0	93,2	91,4
Daromadsiz aktivlar jami	7,2	8,3	9,5	8,1	10,2
Ehtimoliy yo'qotishlarga zaxira	-1,3	-1,5	-1,6	-1,3	-1,6
Jami aktivlar	100	100	99,9	100	100
Balans moddalari	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xitoyning Sanoat-tijorat banki aktivlari daromadlilik va likvidlilik nuqtayi nazaridan samarali joylashtirilgan deb baholash mumkin. Chunki tahlil qilinayotgan davr mobaynida riskli aktivlar tarkibiga kiruvchi kreditlarga yo'naltirilgan aktivlarning o'rtacha ulushi 57,92 foizni tashkil etgan. Bundan tashqari, bankning investitsiyalarga yo'naltirgan mablag'larining o'rtacha ulushi 2017–2021-yillar 1-yanvar holatiga ko'ra 21,7 foizni tashkil qilgan.

Mazkur holat bankka barqaror daromad olish imkoniyatini yaratish bilan birga, likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyoj ortgan sharoitda ham moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Chunki investitsiyalar tarkibidagi yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar qimmatli qog'ozlar bozorida tez realizatsiya qilinishi natijasida qisqa muddatda pul mablag'lariga aylantirilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, Xitoy tijorat banklari tomonidan aktivlardan samarali foydalanish bo'yicha joriy etilgan amaliyotni mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida ham qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlari bo'yicha yillik 1,55 foizlik to'lov amalga oshirilishi belgilangan.

Bunday yondashuv tijorat banklariga likvidlilik bilan bog'liq risklarni vakillik hisobvaraqlarida ma'lum hajmdagi mablag'larni saqlash orqali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu mablag'lardan ma'lum darajada daromad olinishi bank aktivlarini samarali joylashtirishda ijobiy omil sifatida xizmat qiladi (2-jadval).

⁷ Industrial and Commercial Bank Of China Ltdning yillik hisoboti asosida muallif tomonidan tuzildi <http://www.icbc-ltd.com/ICBCLtd/Investor%20Relations/Financial%20Information/Financial%20Reports/>

2-jadval. Rossiya Sberbankining konsolidatsiyalashgan balans hisoboti(1-yanvar holatiga, foiz hisobidagi ulushi)⁸

Balans moddalari	2017	2018	2019	2020	2021
Pul mablag'lari va ekvivalentlari	8,5	6,7	7,0	8,5	6,5
MB majburiy zaxiralari	1,6	0,7	0,8	1,2	0,9
MB mablag'lari	4,9	4,6	3,6	4,6	5,2
Kreditlar	68,2	62,8	68,0	64,0	66,0
Qimmatli qog'ozlar	11,2	11,0	14,0	12,0	13,5
Moliyaviy instrumentlar, REPO	1,0	1,0	0,6	0,9	0,8
Moliyaviy instrumentlarga (hosilaviy) talablar	0,5	0,6	0,6	1,0	0,9
Kechiktirilgan soliqlar	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0
Asosiy vositalar	1,9	1,9	2,3	3,8	3,2
Sotishga mo'ljallangan aktivlar	0,0	8,2	0,0	0,0	0,0
Boshqa aktivlar	2,1	2,5	3,0	4,0	3,0
Jami aktivlar	100	100,1	99,9	100	100

Yuqoridagi jadvalda Rossiyaning yirik banklaridan biri hisoblangan Sberbank aktivlarining tarkibi va ulushi bo'yicha 2017–2021-yillar 1-yanvar holatiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Ta'kidlash joizki, Rossiya Sberbanki mamlakatdagi eng yirik banklardan biri bo'lib, uning aksiyalarining 51 foizi davlat ulushiga to'g'ri keladi. Bankning mamlakat bank xizmatlari bozorida ulushi 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra korporativ kreditlar bo'yicha 31,9 foizni, chakana kreditlar bo'yicha 42,6 foizni hamda depozitlarni jalb qilish bo'yicha 45,2 foizni tashkil etgan. Shuningdek, bank 102,3 milliondan ortiq jismoniy va 3 milliondan ortiq korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatadi⁹.

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bank aktivlari tarkibida asosiy daromad keltiruvchi aktivlar kreditlar va investitsiyalar hisoblanadi. Ularning 2017–2021-yillar 1-yanvar holatiga ko'ra o'rtacha ulushi mos ravishda 65,8 foiz va 12,34 foizni tashkil etgan.

Shuni aytish mumkinki, bank aktivlari daromadlilik va likvidlilik nuqtayi nazaridan samarali joylashtirilgan bo'lib, bu holat bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga, mijozlar oldidagi majburiyatlarini to'liq va uzluksiz bajarish imkoniyatini ham yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy tajribalarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, tahlil va tadqiq qilish natijasida quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

- iqtisodiy nazariyachilar qarashlariga ko'ra, har bir bank foyda olishga intiluvchi iqtisodiy subyekt hisoblanadi va moliya bozorlarida o'z foydasini oshirishga qaratilgan turli strategiyalarni amalga oshiradi;
- iqtisodiy nazariya namoyandalaridan biri bo'lgan fransuz iqtisodchisi P.J. Prudon banklar tomonidan foizsiz kreditlar berilishi zarurligi haqidagi ta'limotni ilgari surgan.

I. Fisher kredit foizi haqidagi ikki xil yo'nalishdagi nazariyalar asosida yangi ilmiy yondashuvni ilgari surgan. U pul kapitalining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlab, shu sababli tadbirkorlar ushbu resursga doimiy ehtiyoj sezishini qayd etadi. Shuningdek, ushbu jarayon ma'lum iqtisodiy munosabatlar, ya'ni foiz stavkalari orqali tartibga solinishini asoslaydi. Fisher nominal va real foiz stavkalari o'rtasidagi muvozanat inflyatsiya darajasi yordamida shakllanishini, kredit beruvchi hamda kredit oluvchi tomon kreditning real qiymatini saqlab qolishdan manfaatdor ekanligini ta'kidlaydi;

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishda real va nominal foiz stavkalari muhim iqtisodiy kategoriyalar hisoblanadi. Real foiz stavkasi aholi va bank mijozlarining investitsion faolligiga bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatadi;

Klassik va neoklassik maktab vakillari hisoblangan F. Kene, A. Smit, A. Marshall, J.S. Mill, J. Sey, L. Valras, V. Pareto va boshqa iqtisodchilar foiz stavkalari talab va taklif asosida bozor mexanizmlari orqali tartibga

8 Россия Сбербанка хисоботи асосида муаллиф томонидан тузилди https://www.sberbank.com/common/img/uploaded/files/info/ifrs2020/sberbank_ifrs_je2021_rus.pdf

9 Финансовые отчеты и презентации для инвесторов. <https://www.sberbank.com/ru/investor-relations/reports-and-publications>



solinishini ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirishda bozor mexanizmlari asosiy rol o'ynaydi. Neoklassiklar yondashuvida moliya bozorida jamg'armalar pul taklifi sifatida namoyon bo'lsa, investitsiyalar pulga bo'lgan talabni shakllantiradi. Pulning bahosi esa foiz stavkasi orqali ifodalanadi;

Avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter bank kreditlari iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jamiyatdagi innovatsion va texnologik rivojlanishlarning asosida bank kreditlari yotadi;

Xorijiy banklar amaliyotida aktivlar samaradorligini oshirishda asosiy e'tibor bank balansidagi riskka tortilgan aktivlar hajmini optimallashtirishga qaratiladi. Masalan, xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan muddatli depozitlarning 75 foizdan ortiq qismi kreditlarga joylashtirilgan bo'lsa, bu agressiv kredit siyosati yuritilayotganidan dalolat beradi. Agar ushbu ko'rsatkich 65 foizdan past bo'lsa, bu bankning mo'tadil kredit siyosatini amalga oshirayotganini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – Moscow: Eksmo, 1993. – 572 p.
2. Yusupov Yu.B. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – Toshkent: Fan, 1997. – 256 b.
3. Fisher I. The Theory of Interest. – New York: Macmillan, 1930. – 566 p.
4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 403 p.
5. Schumpeter J.A. History of Economic Analysis. – New York: Oxford University Press, 1954. – 1260 p.
6. Pigou A.C. The Economics of Welfare. – London: Macmillan, 1932. – 876 p.
7. Robertson D.H. Money. – London: Nisbet & Co., 1922. – 198 p.
8. Marshall A. Principles of Economics. – London: Macmillan, 1890. – 731 p.
9. Mill J.S. Principles of Political Economy. – London: Longmans, Green and Co., 1848. – 808 p.
10. Walras L. Elements of Pure Economics. – London: George Allen & Unwin, 1954. – 515 p.
11. Pareto V. Manual of Political Economy. – New York: Augustus M. Kelley, 1971. – 504 p.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2021.
13. Industrial and Commercial Bank of China (ICBC). Annual Report 2021. – Beijing, 2022. [ICBC Annual Reports](#)
14. Sberbank Rossii. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar, 2021. – Moskva, 2022. Sberbank Financial Reports
15. Uktamova N.N. The Problems of Increasing the Income and Quality of Assets of Commercial Banks // International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology. – 2021. – Vol. 9, Issue XII. – pp. 2321–9653.
16. The Global Economy. Non-performing loans as percent of total bank loans, 2020. [The Global Economy – Non-performing loans](#)
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimida muammoli kreditlar holati bo'yicha rasmiy axborotlar, 2021. [Markaziy bank rasmiy sayti](#)
18. Basel Committee on Banking Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards (Basel III). – Basel: BIS, 2017.
19. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Boston: Pearson Education, 2019. – 720 p.
20. Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management and Financial Services. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 768 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
